

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI INGLIZ TILIDA PRODUKTIV FAOLLASHTIRISH

Asiljonova Shohsanam Doniyor qizi,

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassisilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 13-00-08 maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0006-5080-4228>

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.024>

Annottasiya: Mazkur maqolada maktabga tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilariga xorijiy tilni o'rgatishning dolzarbligi, tarbiyalanuvchilarga xorijiy til o'rgatish uchun ajratilgan imkoniyatlar, tarbiyalanuvchilarga qo'yilgan talablar, maktabgacha ta'lim hamda maktab ta'limi o'rtasidagi uzviylik, darsliklar tahlili, produktiv nutq va uning amalga oshirilishi haqidagi ma'lumotlar hamda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabga tayyorlov guruhi, faollashtirish, o'quv dasturi, darslik, produktiv nutq, retseptiv nutq, dialog, mualliflik ta'rifi, syujetli-ro'lli o'yinlar.

ПРОДУКТИВНАЯ АКТИВАЦИЯ УЧАЩИХСЯ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Асилжанова Шохсанам Дониёровна,

Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных учреждений, 13.00.08 - Докторант II степени специальности «Теория и методики дошкольного образования»

Аннотация: В данной статье рассмотрены актуальность обучения иностранному языку учащихся подготовительной группы к школе, возможности, предоставляемые для обучения иностранному языку учащихся, требования, предъявляемые к учащимся, взаимосвязь дошкольного образования и школьного образования, анализ учебников, продуктивная речь и информация о ее реализации.

Ключевые слова: Подготовительная группа к школе, активация, учебная программа, учебник, продуктивная речь, рецептивная речь, диалог, авторское описание, ролевые игры.

PRODUCTIVE ACTIVATION OF THE SCHOOL PREPARATION GROUP'S STUDENTS IN ENGLISH

Asiljonova Shohsanam,

Institute of Retraining and Advanced Training of Managers and Specialists of Preschool Education Institutions, 2nd year basic doctoral student, majoring in Theory and Methods of Preschool Education and Training.

Annotation: In this article, the urgency of teaching a foreign language to students of the preparatory group for school, the opportunities allocated for teaching a foreign language to students, the demands placed on students, the coherence between preschool education and school education, the analysis of textbooks, productive speech and the information about productive speech's implementation is highlighted.

Key words: Preparatory group for school, activation, curriculum, textbook, productive speech, receptive speech, dialogue, author's description, role-playing games.

Kirish. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xorijiy tillarni o'rgatish juda ommalashgan. Ushbu o'rinda aytib o'tishimiz joizki xorijiy tillarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv rejasiga kiritish O'zbekistonda ham keng joriy etilgan va bugungi kunda mamlakatimizdagi barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida xorijiy til o'rgatilmoqda. Juda ko'p bolalar bog'chalari xorijiy til sifatida ingliz tili mashg'ulotlarini o'z dasturlariga qo'shishgan va bu til uzluksiz ravishda o'qitishning barcha bosqichlarida amalga oshirilmoqda. 2012- yil 10- dekabrda qabul qilingan PQ-1875 "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi" dagi qarorga asosan

chet tillarini maktabning boshlang'ich sinflarida haftasiga 2 soatdan o'yin tarzida o'qitish joriy etilgan, yuqori sinflarda esa haftasiga 3 soatdan o'qitish belgilab berildi. Ushbu qaror qabul qilingandan so'ng ingliz tilini maktabgacha ta'lim muassasalarida ham xorijiy tillarni o'qitish maktabgacha ta'lim davlat dasturlariga kiritila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda qabul qilingan 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorda berilgan Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasida ikkinchi til o'quv dasturiga kiritilgan. [3,4]

Asosiy qism. "Ilk qadam" davlat dasturiga asosan katta (5-6 yosh) guruhdagi bolalar faoliyati turlarining taxminiy miqdoriga ko'ra xorijiy tilni o'qitish haftasiga 2 martadan o'quv yili mobaynida 72 mashg'ulot, Maktabga tayyorlov (6-7 yosh) guruhlari esa haftasiga 2 marotaba o'quv yili mobaynida 72 mashg'ulot, sog'lomlashtirish davri mobaynida esa haftasiga 1 marotaba 12 mashg'ulot etib belgilangan. [5]

"Ilk qadam" davlat dasturining II ilovasiga ko'ra guruhlarda ikkinchi tilga o'rgatish mashg'ulotlari katta guruhlarda 15-20 daqiqa davomida olib borilishi belgilangan. Ushbu vaqt maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining fiziologik va psixologik holatidan kelib chiqqan holda, bolalarning diqqati, irodasi, xotira kuchi hisobga olinib belgilangan.

Xorijiy tilni o'rganish mashg'ulotlari maktabgacha ta'limdan joriy etilishining asosiy sabablaridan biri, bu xorijiy tillarni bilish bugunning asosiy talabi ekanligi bo'lsa boshqa sababi maktab ta'limida xorijiy tillarni o'rganish boshlang'ich sinflardan tashkil qilinganligidir. 7 yoshli bola maktabga keldi u yozuv, o'qish, tabiat, rasm, texnologiya kabi fanlar bilan bir qatorda xorijiy til darslarini ham o'rganishi kerak. Shu vaziyatda agar bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnagan va u yerda xorijiy til mashg'ulotlarida qatnashgan bo'lsa, demak maktab dasturida mavjud bo'lgan chet tili darsini o'zlashtirib keta oladi. Shu yerda o'rinli mulohaza paydo bo'ladi, bog'chada olingan bilimlar va maktab dasturiga kiritilgan darsliklarimiz bir birini to'ldira oladimi, ikki ta'lim muassasasida amalda olib borilayotgan xorijiy tilni o'rgatish uchun qabul qilingan davlat dasturlari bir biriga bog'likmi?

2016-yilda M.Irisqulov, S.Xan va boshqalar hammuallifligida nashr etilgan maktabning 1-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "Kid's English" Ingliz tili darsligi hamda 2021-yilda "Cambridge University press"ning O'zbekiston uchun nashr qilingan Susanna Reed va Kay Bentley muallifligidagi Ingliz tili "Guess What 1" darsliklari tahlil qilinganda ular o'rtasidagi tafovutlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

"Kid's English" darsligida xorijiy til - ingliz tili eng quyi darajadan boshlab o'rgatilgan, bu darslik orqali bola yil yakunida 100-150 so'z boyligiga ega bo'ladi, elementar savollarga javob beradi tevarak atrofida mavjud bo'lgan narsa buyumlarning nomlarini o'rganadi va xorijiy tilda aytib bera oladi. O'rganishning keying boshqichlarini 2- sinf "Kid's English" darsligidan davom ettiradi. Xorijiy tilda o'qish hamda yozish ko'nikmalari ham ikkinchi sinfda shakllantiriladi. Ushbu darslik orqali o'qitilganda bola maktabga kelgan davrda xorijiy tildan past darajadagi bilimga ega ekanligi yoki bilimlari yo'qligi ahamiyatga kasb etmagan, chet tili o'rgatishning eng birinchi bosqichi sifatida shu darslik amal qilgan. Ammo, 2021-yildan maktab ta'limiga joriy etilgan "Guess What 1" darsligida bola maktab ostonasiga qadam qo'yganda, shu davrga qadar xorijiy tildan yetralicha bilimga ega bo'lishi talab qilinadi. Chunki mazkur darslik talabi boshlang'ich bilim berish emas, balki olingan boshlang'ich bilimlarni nutqda produktiv qo'llash etib belgilangan. Aynan mana shu talabdan kelib chiqqan holda xulosa qilinsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan ikkinchi tilga o'rgatish mashg'ulotlari tarbiyalanuvchilarning kelgusi o'qish faoliyatida eng muhim jarayon hisoblanadi.

Demak, tarbiyalanuvchilarga xorijiy tildagi dastlabgi bilimlar beruvchi: bolalar tevarak atrofida buyumlar nomlari, ilk hissiy tushunchalar, ko'p qo'llaniladigan sifatlar, sanoq sonlar, ish harakat nomlari, so'roq so'zlar va so'roq gaplar va ularning sodda javoblarini ifodalovchi so'zlar kabi leksik birliklar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ikkinchi til mashg'ulotlarida o'qitilishi lozim. Ushbu bilimlar tarbiyalanuvchilar tomonidan nafaqat egallanishi, balki produktiv nutqda ifodalanishi kerak.

Xorijiy tillarni o'qitish davomida turli til ko'nikmalariga tayanib darslar olib boriladi. Bu ko'nikmalar sifatida tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalari qabul qilingan. Ushbu ko'nikmalar ikki guruhga bo'linib, produktiv va retseptiv nutq ko'nikmalari nomi bilan atalgan. Produktiv va retseptiv

nutq haqida juda ko'p olimlar tomonidan bir qancha manbaalarda ta'rif berilgan quyida ular haqida bildirilgan ba'zi fikrlar taqdim etiladi.

Taniqli ingliz metodisti, ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitilishida o'zining beqiyos hissasini qo'shgan trener Jeremi Harmer fikricha, xorijiy tilda produktiv nutq - so'zlovchining biror tilda mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatidir. J. Harmer produktiv nutq tarkibiy qismlariga xorijiy tilda gapirish va yozish qobiliyatlarini kiritgan. [6]

Ingliz tili o'qitish metodikasida juda katta ilmiy ishlar muallifi hisoblangan taniqli o'zbek olimi, professor J.J. Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" asarida nutq ning sodir bo'lish jarayoni haqida to'xtalib o'tar ekan produktiv nutq haqida quyidagi fikrlarni ifodalagan: "Chet tilni o'rgatish ushbu tilda nutqning sodir bo'lishi yoki idrok etilishi jarayonini tashkil qilishdir. Fikrni ifodalash psixolingvistikada (re)produktiv nutq faoliyati deyiladi, bunga gapirish va yozuv kiradi. Ifodalangan fikri (gapirish va yozuv mahsulini) idrok etish retseptiv nutq hisoblanadi." Ushbu asarda produktiv nutq hamda reproduktiv nutq parallel tushunchalar tarzida ifodalanib bir xil mazmun anglatgan. [7]

Ushbu olimlar va metodistlarning fikrlarini inobatga olgan holda biz produktiv nutqga o'z mualliflik ta'rifimizni kiritdik. Produktiv nutq - o'rganilayotgan xorijiy tilda o'quvchining o'z fikrlarini faol bayon eta olishi hisoblanib, ushbu faollik gapirish hamda yozish orqali muloqot olib borishda ifodalanadi. Retseptiv nutq esa o'quvchi tomonidan o'z g'alar fikrini tushuna olishi hisoblanib, ushbu jarayon o'qish hamda tinglab tushunishda namoyon bo'ladi.

Demak produktiv nutq - xorijiy tilda fikrni faol tarzda bayon etish hisoblanib, o'z tarkibiga gapirish hamda yozish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali muloqot jarayoniga kirib borishni olar ekan. Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim jarayonida tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun "Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari" ishlab chiqilgan bo'lib, bo'limning "Nutq muloqot o'qish va yozish malakalari" qismida belgilangan davrda bola uchun qo'yiladigan talablar bayon etilgan, ushbu talablarga ko'ra tarbiyalanuvchilar 6-7 yoshda ona tilda yozishning dastlabgi malakalari va vositalaridan foydalanishni bilish kompetensiyasi shakllanishi talab etiladi. Yozishning eng dastlabgi malakalari va vositalaridan foydalanishni bilish asosiy ta'lim olayotgan ona tilida shakllantirilib, ushbu talab darajasiga qo'yilgan kompetensiya o'rganilayotgan xorijiy tilga taaluqli hisoblanmaydi. Xorijiy tilda esa ushbu yoshdagi bolalarga chet tilini o'rganishga qiziqish bildirish hamda chet tili bo'yicha dastlabki bilimlarini namoyish etish kompetensiyalarini namoyish etish talablari qo'yilgan. Aynan ushbu talab normalaridan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, 6-7 yoshdagi bolalardan o'rganilayotgan xorijiy tilda yozish malakasini o'zlashtirilishi talab qilinmaydi. [5]

Produktiv nutqni rivojlantirish uchun qaysi usullardan foydalanish kerak? Maktabga tayyorlov guruhlarida olib borilayotgan xorijiy til mashg'ulotlarida tilni produktiv o'rganish uchun yetarli shart sharoitlar bilan ta'minlanganmi? Qaysi metodlardan foydalanish xorijiy tilni o'rganishda samarali natijalar beradi? Ushbu savollar bugungi kunda maktabgacha ta'limda xorijiy til o'qituvchisi sifatida faoliyat olib borayotgan pedagoglar

Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilishimiz mumkinki, biz maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari bilan xorijiy til mashg'ulotlarini olib borishda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalariga tayangan holda darslar tashkil qilishimiz lozim. Aynan shu kompetensiyalarga suyangan holda, biz bolalarga xorijiy tilni o'zlashtirishda produktiv nutq faoliyati tarkibiy qismlaridan faqatgina gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga e'tiborimizni qaratishimiz lozim bo'ladi.

Maktabgacha davrda inson umri davomida egallanadigan bilimlarni eng muhimlari va butun umr davomida foydalaniladigan bilimlar olinilishi hisobga olinsa, bu davrda o'rganilishi lozim bo'lgan xorijiy til ham shu davrda mustaxkam egallanishi joizdir. Bolalar psixologiyasiga asoslanadigan bo'lsak, bolalar bilimlarni mukammal egallashi uchun ularga qiziqarli bo'lgan usullarda darslar olib borilishi lozim. Masalan o'yinlar orqali o'rganilgan bilimlar bolalarda kelajakda foydalanish uchun eng qulaylari hisoblanadi.

Ushbu davrda ingliz tilida produktivlikni ta'minlaydigan o'yinlar sirasiga didaktik o'yinlarni, syujetli ro'lli o'yinlarni, interaktiv o'yinlarni misol qilib olishimiz mumkin. Quyida maktabgacha ta'limda ingliz tilida produktivlikni oshirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan didaktik o'yinlardan namunalar

beriladi.

Ko`rinarli so`zlar- Sight words



Kimlar uchun: katta va maktabga tayyorlov guruhi, 1-sinf


Til ko`nikmasi: “Dolch” ko`rinarli so`zlarini o`rganish, ularni nutqda produktiv qo`llash

Ko`rinarli so`zlar - bu ingliz tilida tez-tez qo`llaniladigan, ammo osonlik bilan talaffuz qilinmaydigan so`zlar. Shu sababli, bolalar ularni ko`rish orqali o`rganishlari kerak. Dolch tadqiqotchi bo`lib, ingliz tilidagi barcha matnning 50 foizini tashkil etadigan 220 ta eng keng tarqalgan so`zlarni aniqlagan. «I» ko`rinarli so`zi bolalar bog`cha yoshidayoq osongina o`rganadigan so`zlardan biridir.

“Sight words” o`qishning muhim qismlari hisoblanadi, lekin ularni eslab qolish qiyin bo`lishi mumkin. Ushbu “Sight words” o`yinlari bolaga so`zlarni qiziqarli va interaktiv tarzda o`rganishga yordam beradi. Ular so`zni boshqa so`zlar qatorida aniqlashlari va uni tanlashlari kerak bo`ladi. O`yinda natijadorlik oshi borishi o`laroq so`zlar ko`plab beriladi va tarbiyalanuvchilar juda ko`p so`zlar belgilangan “sight word”ni topishlari kerak bo`ladi.

Ushbu o`yin bolada avvalo diqqatni, xotirani, tezlikni oshirishga yordam berib, kelasi bosqichlarda o`qish ko`nikmasi hosil bo`lishida katta yordam beradi.[8]

Qaroqchilar alifbosi - Pirate Alphabet



Kimlar uchun: Maktabga tayyorlov guruhi

Til ko`nikmasi: Ingliz alfabitini produktiv eslab qolish.

Tarbiyalanuvchilar uzoq vaqt davomida qiziqarli ingliz tili o`rgatuvchi o`yinlar bilan shug`ullanishi mumkin. Shuning uchun bunday o`yinlar ajoyib, qisqa va foydali bo`lishi, shuningdek barcha kerakli ko`nikmalarni qamrab oladigan bo`lishi lozim. Ushbu o`yinda bolalar o`qituvchi tomonidan berilgan ovozli ko`rsatmalarni tinglashadi va ular eshitgan harflarni tanlab bosishadi. Shuningdek, bu o`yinni boshqa tarzda o`ynash ham mumkin, yuqoridagi rasm chop ettiriladi hama qismlarga ajratilib kesiladi. Bolalar predmetlar qismlarini tog`ri joylashtirish asnosida alfabitni ham o`rganishlari mumkin.

Chiroyli, rang-barang tasvirlar va jozibali musiqa bilan bu o`yin tarbiyalanuvchilarni alfabitni o`rganayotganda qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qilishi aniq.[8]

Xulosa. Maktabgacha va maktab davrida ingliz tilini o`qitishdagi bog`liqlik, maktab darsliklari va bugungi kunda darsliklardagi murakkablik haqida ma`lumotlarga tayanib aytishimiz mumkinki,

darslik bilan mavjud muammolardan biri maktablarda ushbu kunda qo'llanilayotgan "GuessWhat" darsliklarda asosiy talab bolalarning xorijiy tilda muloqot olib borishiga yo'naltirilgan. Ushbu darslikni mukammal o'rganib chiqish natijasida shunday qarorga kelish mumkin: maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari maktab ostonasiga kelar ekan xorijiy tilda muloqot qilishga tayyor holda kelishlari kerak. Ushbu muloqot eng oson monologlar, dialoglar, polilog yoki savol- javoblardan ibrat bo'lishi mumkin. Tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlashda ularga yetarli darajada xorijiy til bilimlarini berish bilan birga ushbu bilimlarni amaliy qo'llashga ham e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Bolalarda xorijiy tilda produktivlikni ta'minlash ustozlarning asosiy vazifalarimizdan biri bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'RQ 595-sonli Qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da gi PQ-1875-sonli Qarori.

"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri.

Jeremy Harmer. The Practice of English language Teaching. London: 4th edition, Pearson Longman. 2004. PDF

J.J.Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" darslik. Toshkent, O'qituvchi. 2012.

M.Yusupova, D.Umarova, Sh.Asiljonova "Methodology of teaching Foreign languages with educational games" darslik. Toshkent. Zebo prints. 2023